

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Zahiriddin Muhammad Bobur nomli
Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti
Tilshunoslik kafedrası

III bosqich “A” guruh talabasi
Gulhayo Xasanovani

Hozirgi o'zbek adabiy tili
fanidan mustaqil ish uchun yozgan

REFIRATI

Mavzu: “Egani grammatik belgisi”

Ilmiy rahbar:
Bajardi :

H.Zokirova
G.Xasanova

Andijon - 2015

Reja

I. KIRISH.

Til – ijtimoiy hodisa.

II. ASOSIY QISM:

1. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy mezonlar.

2. Gap bo'laklarining shakily va mazmuniy tuzilishiga ko'ra xususiyatlari.

3. Ega va uning ifodalanishi.

4. Eganing ma'no turlari.

5. Eganing tuzilish turlari.

III. XULOSA.

Til – ijtimoiy hodisa

Tilning paydo bo'lishi va uning taraqqiyot yo'lini o'rganish tilning qanday hodisa ekanligini tasavvur qilish imkonini beradi. Tilshunoslik tarixida qadimdan qarama-qarshi ikki fikr o'rtasida kurash boradi. Birinchisi, XIX asrda Germaniyada Avgust Shleyxer tomonidan asos solingan tilning tabiiy hodisa ekanligi haqidagi fikrdir¹. Shleyxer u yoki bu hodisaning tabiiy yoki ijtimoiyligini halqning irodasi shu hodisaga ta'sir ko'rsata olish olmasligi nuqtai nazardan aniqlaydi. Uning fikricha, tilning rivojlanishi halq istagiga bog'liq bo'lmaydi, xalq istagiga bog'lik bo'lmaydi, u o'z qonunlari asosida rivojlanadi, demak, til tabiiy hodisalar qatoridan o'rin olishi kerak. Bunday til dunyodagi boshqa tabiiy hodisalar singari o'z-o'zicha paydo bo'ladi, rivojlanadi, kezi kelganda, yo'q bo'ladi. Uning fikricha, tilning rivojlanishi xalq istagiga bog'lik bo'lmaydi, u o'z qonunlari asosida rivojlanadi, demak, til tabiiy hodisalar qatoridan o'rin olishi kerak. Til kishining tabiiy xususiyatlariga xos narsadir. Bunday fikrni ilgari surgan olimlarda ba'zi «dalillar» ham bor edi. Ular lotin, sanskrit kabi o'lik tillarni misol qilib qo'rsatishadi. Mazkur fikr tarafdorlari o'z nazariyalarini asoslashda nemis idealist faylasuf olimi Gegelning absolyut g'oyasidagi foydalanadilar. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi ana shu absolyut g'oyaning harakati deb bilishadi, bu esa noto'g'ridir.

Materialistik tilshunoslik til tabiiy hodisadir, degan g'oyani rad etadi. Tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti insoniyat jamiyati bilan uzviy bog'langan. Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr qo'rmasin, u gapirmaydi. Chunki til nasldan-naslga, avloddan-avlodga o'tmaydi, ya'ni uning

¹ Ҳожиёв А., Махмудов Н. Семантика ва синтаксис позиция. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн, 1983 . 2-сон.

irsiyatga hech qanday yaloqasi yo'q. Irsiyat qonuniga binoan, bolaning biologik, antropologik xususiyatlari avloddan-avlodga o'tadi, lekin o'zbek oilasida tug'ilgan bola faqat o'zbek tilida gapiradi deyish noto'g'ridir. U qaysi tilda gapira boshlashi, qaysi oila, qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog'liq: agar chaqaloq ichida tarbiyalansa, ruscha, tojiklar ichida tarbiyalansa, tojikcha gapiradi¹.

Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quoldir. Tilning taqdiri uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyati bog'liq. Til jamiyat bilan paydo bo'lganidek, jamiyat birga o'ladi. Yuqorida lotin, sanskrit tillari esga olinib, o'liq tillar deb aytilgandi, chunki bu tillarda gaplashadigan, uni o'z ona tili deb hisoblaydigan halq yo'q, hozirgi kunda bu tillarning lug'at tarkibi, tovushlar majmui, gramatikasi bor, ular to'g'risida fikr yuritish, boshqa tillar bilan qiyoslash mumkin. Ammo bu tillarda rivojlanish yo'q, qamidan qanday bo'lsa, hozir ham shundayligicha qolaveradi.

Hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralsa, narsalar bilan ularning orasida, umuman olganda hech qanday bog'lanish yo'q. Bu ko'pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomi orasida bog'liq bo'lganda tillarning soni 5000 dan ortib ketmasdi. Asosiy farazlar: 1. Tovushga taqlid. Bu faraz qadimgi Yunononistonda Demokrit va Platon davrida o'rta tashlangan bo'lib, unga qo'ra ibtidoiy odamlar yo ongli, yo ongsiz tarzda turli-tuman tovushlar, yaoni hayvonlarning baqiriqlari, qushlarning sayrashlari, shamol va sharsharalarning ovozlari va hokazolarga taqlid qilishga harakat qilingan. Ibtidoiy odamlar dastlab ayrim tovushlarni, keyinchalik bu tovushlarni bir-biriga qo'shib talaffuz qilishni o'rganishgan: ana shu tovush va tovush

¹ Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқида гап бўлаклари тартиби. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. 1976 йил 6-сон.

birikmalari soʻz yasashga asos boʻlgan, degan fikr ilgari surilgan. Tabiatda chiqaradiganlarga nisbatan koʻr. Shunda boʻlgach, tovush chiqarmaydigan narsalarga nom qaerdan olib qoʻyilgan degan tabiiy savol tugʻiladi. Tovushga taqlid qilish farazi toʻgʻri boʻlsa, unda ibtidoiy jamitda yashagan qabilalar tilida bunday usulda yasalgan soʻzlarning soni fan va texnikasi rivojlangan halqlar tilidagiga nisbatan koʻproq boʻlishi kerak. Lekin soʻnggi yillarda Avstraliya va Janubiy Amerikada topilgan, ibtidoiy tuzumni boshidan kechirayotgan qabilalar tilida oʻtkazilgan tajribalar, bu tillarda tovushga taqlid qilish yoʻli bilan yasalgan soʻzlar rivojlangan tillarigiga nisbatan birmuncha kamligini koʻrsatdi. Undan tashqari tabiatdan baqiriq-chaqiriq, shovqin-suronlarga taqlid qilish uchun nutq organlarining oʻta rivojlangan boʻlishi zarurligi ham aniqlangan. Maolunki til bilan tafakkur bir vaqtda paydo boʻladi. Spunday ekan, yuqoridagi farazni ilgari surgan faylasuflar va tilshunoslarning fiqri til bilan tafakkur birligshiga ziddir, chunki farazga dastlabki taqlidiy tovushlarni igʻtidoiy odamlar benxtiyor “izhor qilishgan” deyiladi. Bunday holda til tafakkurdan avval paydo boʻlgan degan notoʻgʻri hulosa yuzaga kelishi mumkin.

Gap boʻlaklarini belgilashda asosiy mezonlar

Gap boʻlaklari gapning uzviy qism sifatida maydonga keluvchi sintaktik kategoriyalardir. Soʻzlar gapda semantik grammatik jihatdan mustaqil funktsiya ifodalab muayyan soʻroqqa javob boʻlib, kelgandagina gap boʻlagi sanaladi. Soʻzlarning biror boʻlak vazifasida kela olishi yoki kela olmasligini gapning qurilishining sintaktik qoidalari belgilaydi. Gap boʻlagi gapning boshqa boʻlaklari bilan oʻzaro grammatik bogʻlangan,uzviy bogʻlangan munosabatga kirishgan organik qismidir.Gap boʻlaklari mustaqil soʻzlar yoki soʻz birikmalari bilan ifodalanadi. Har qaysi turkumdagi soʻzlar gapda maʼum bir sintaktik funktsiyada qoʻllanadi.Feʼlning koʻroq kesim,sifatning aniqlovchi, ravishning

hol, otning ega, to'ldiruvchi vazifasida kelishi ana shu holat bilan izohlanadi. Biroq undan so'z turkumlari bir xil hodisa ekan degan xulosa kelib chiqmaydi.

So'z va so'z birikmalarining mohiyati ularning gap tarkibida bajarganini vazifa belgilaydi: *Zulfiya o'qigan kitob meni juda qiziqtirdi.*

Gap bo'laklarini o'rganish leksik semantik strukturasini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki gapning bo'laklarga ajratish ularning ifoda materiallari va mahnolarini o'rganishni taqazo etadi. Gapning har bir bo'lagi gap orqali qilinayotgan xukmning butunligini taominlashda alohida o'rin tutadi. Gap belgi belgilashda so'z yoki birikmaning quyidagi belgilari asosiy (prinsip) bo'lib xizmat qiladi. Gap bo'laklarining leksik-semantik xususiyati. Bunda gap bo'lagi vazifasida kelgan so'zning anglatgan mahnosi eotiborga olinadi, yaoni bunda so'zning gap tarkibida anglatgan mahno va talab qilayotgan so'rog'i asos bo'ladi. Gap bo'laklarining semantik aloqaga kirish usullari. Har bir gap bo'lagi gapda sintaktik aloqaning u yoki bu turi yordamida boshqa bo'laklar bilan aloqaga kirishadi. Ega fe'l kesim bilan shaxs-sonda moslashadi. To'ldiruvchi o'z komponentiga (to'ldirishiga) boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. Sifat aniqlovchi doim bitirish yo'li bilan aloqaga kirishadi. Gap bo'laklarining sintaktik aloqa usuli yordamida belgilashda ana shu jihatlarga eotibor qaratililadi. Gap bo'laklarini aloqaga kirituvchi vositalar. Ma'lumki, har bir gap bo'lagi maolum bir leksik-grammatik vosita yordamida boshqa bo'laklar bilan doimo tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari formolari yoki ko'makchilar yordamida aloqaga kirishadi. Bunday vositalar boshqa bo'laklarga ham hosdir¹. Bunda gap bo'lagini belgilashda ana shunga e'tibor qilamiz.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. II том Т., 1976 йил.

Gap bo'laklarining bir-biriga nisbati (munosabat). Bunda biror bir bo'lakning asosan qaysi bo'laklarga bog'lanish kesimiga oladi. Masalan, sifat ko'proq egaga to'ldiruvchiga, hol asosan fe'l kesimiga bog'lanadi. Mazkur prinsip gap bo'laklarini belgilashda bo'laklarning ana shu jihatlari eotiborga olinadi. Bo'laklar gapda vazifa jihatdan bir hil emas. Ba'zi bo'laklar gapning umumiy mazmuniga aniqlik kiritish, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi. Bularning qo'llanmasligi gap mazmunini yoki tuzilishini keskin o'zgartirib yubormaydi. Ba'zi bo'laklar esa aksincha gapda ishtirok etishii albatta zarur, chunki bularsiz gapning o'zi hosil bo'lmaydi. Mana shu tomonlarga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajraydi. Bosh bo'lak va ikkinchi darajali bo'lak. Bosh bo'lak gapning grammatik asosini tashkil etadi. Ular gapning sintaktik markazini ifoda etib zaruriy bo'laklar sanaladi. Bir gap orqali ifoda etayotgan hukmi bosh bo'laklar ega va kesim orqali reallashadi. Gap uchun zauru bo'lgan predikativlik tushunchasi bosh bo'laklar orqali ifoda etiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarga bog'lanib ularni mazmunan to'ldirib belgi va holat jihatdan aniqlab keladi. Ana shu xususiyatlardan kelib chiqib, ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi turlarga ajraydi. Ular gapda mustaqil qo'llana olmaydi. Ular bosh bo'laklarga bog'langandagina nutqda ishtirok etadi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning semantik grammatik munosabati shuni ko'rsatadiki, ikkinchi darajali bo'lgan tobe, bosh bo'lak xokim bo'ladi.

Gap bo'laklarining shakliy va mazmuniy tuzilishiga ko'ra xususiyatlari

Sintaktik birlik hisoblangan gapning shakliy tuzilishi jihatidan quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) sintaktik aloqaga kirishadigan shakllar;

2) sintaktik aloqaga kirishmaydigan shakllar.

Bularning birinchi guruxi an'anaviy gap bo'laklari hisoblanadi. Gap bo'laklari o'z shakliy, mazmuniy tuzilishiga ega bulib, ular o'rtasida doimiy munosabat mavjud. Ana shu munosabat negizida gap bo'laklarining darajalanishi namoyon bo'ladi.

Gap bo'lagi gapning boshqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismdir. Gap bo'lagi bilan gap orasidagi munosabat qism bilan butun orasidagi munosabatdek bo'lib, dialektik xarakterga ega¹.

Gap bo'laklarini belgilashda quyidagilar asosga olinadi:

1. Gap bo'laklarining leksik-semantik xususiyati.
2. Gap bo'laklarini o'zaro sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar, aloqaga kirishish usullari.
3. Sintaktik aloqa komponentlarining shakli.
4. Sintaktik aloqa komponentlarining bir-biriga nisbati².

Har qanday qurilma gap bo'lib kelishi uchun minimal shaklga ega bo'ladi. Bu minimal gapning struktura asos (grammatik markaz)ini tashkil qiladi. Fikr, asosan gapning mana shu struktura asosi orqali ifoda qilinadi.

Gapning stuktura asosi gapning bosh bo'laklaridan iboratdir. Demak, bosh bo'laklar har qanday gapning asosini tashkil qiladi. Bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat bo'ladi. Masalan: Bu yigit – Rustamjonning o'rtog'i (Yashin).

Gapdagi qolgan bo'laklar odatda bu ikki bo'lakdan biriga bog'lanadi. Bu ikki bo'lakka bog'langan elementlar shu bo'laklarga tobe bo'ladi. Demak, ega va kesim o'ziga bog'langan so'zlar ustidan hokim bo'lib, bularda boshqa xolat yuq: bular hech qanday bo'lakka tobe emasdir.

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Т, 1992 .

² Шоазизов Ш. Эга ҳақида баъзи мулоҳазалар. Т., ДПИ илмий асарлари 87 том. 1972

Gapdagi ikki sostavning hokim elementlaridan boshqa elementlari ikkinchi darajali bo'laklardir.

Ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi bosh bo'laklarni aniqlash, ulardan anglashilgan fikrni to'ldirib kelishdir. Ikkinchi darajali bo'laklar egani, kesimni aniqlab keladi yoki bir ikkinchi darajali bo'lak boshqasini aniqlab keladi. Shunda ham aniqlangani, ya'ni bosh bo'lakning biriga bog'lanadi. Masalan: Dehqon chol bizlarning so'zlarimizni zavqlanib tingladi («Sharq yulduzi»). Bunday ikkinchi darajali bo'laklardan biri (dehqon) egani aniqlab kelgan, boshqa ikkitasi (zavqlanib, so'zlarimizni) kesimni aniqlab kelgan, yana biri (bizning) boshqa bir ikkinchi darajali bo'lakni aniqlab kelgan. Bu keyingi bo'lakning aniqlanmish kesimga bog'langan. Ikkinchi darajali bo'laklarga to'ldiruvchi, aniqlovchi va xollar kiradi. Masalan: San'atkorlarning barmoqlari dutor torlari ustida sehrli harakat qilar edi. (Oybek).

Gap bo'laklari strukturasi quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. Mustaqil so'z. Bunda sodda, qo'shma, qisqartma, juft so'zlar bilan leksik birlik sifatida qaraladi: Besh kunlik reja ortig'i bilan bajarildi. Yaxshi-yomon gaplar o'tgan bo'lsa, kechirasiz. O'zbekiston – bizning vatanimiz.
2. Mustaqil so'z ko'makchi: qalam bilan yozmoq.
3. Erkin so'z birikmasi: O'sha zamon qo'ng'iroq chalindi. Zulfiya o'qigan kitob meni juda qiziqitirdi. Hamma tomondan turli ovozlar eshitilar edi.
4. Bir butun xolda qo'llanadigan bog'lanmalar: O'zbekiston Respublikasi Konstituciyasi – haq-huquqlarimiz qomusi.
5. Turg'un birikma (frazologizm)lar: Ammo turmush raisning karomatini puchga chiqardi¹.

¹ Абдурахмонов Ф. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Т., 1979.

Ega va uning ifodalanishi

Ega gapda kesim orqali ifodalanayotgan belgi predmetini anglatuvchi bo'lakdir. Demak, ega fikr sub`ektini, nutq predmetini bildiradi. Bunda predmet keng ma`noda (narsa, shaxs, voqea-hodisa, belgi, xususiyat, harakat, holat va boshqalar) tushuniladi.

Egalar kim? Nima? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi: Qirq talaba tushgan qayiq pristanga etib keldimi? (J.Sharipov). Ishni yoshlar qilaversin, siz pensiyaning lazzatini suring, oqsoqol! (I.Raxim).

Ega sub`ekt bilan bog'liq. Ko'pincha ega va sub`ekt teng keladi: Mahfuza tinglab o'tiribdi («Sharq yulduzi»). Bu gapda Mahfuza – logik jihatdan sub`ekt, grammatik jihatdan ega. Lekin ega va sub`ekt hamma vaqt ham teng kelavermaydi: Bu rasm erkin tomonidan ishlangan: Paxta terildi. Birinchi gapda ega rasm, lekin u sub`ekt emas (fikrning sub`ekti – erkin). Ikkinchi gapda ega logik ob`ekt (paxta), gapda ega vazifasida kelyapti. Bunda sub`ekt qo'llanmagan¹.

Ega bosh kelishik shaklidagi otlar va olmoshlar bilan ham ifodalanishi mumkin: 1. Saodat etilgan qizlarning butun latofatini egallab olgan (G'.G'ulom). 2. Albatta xo'jalikning nuqsonlari ko'p. Buning uchun hammamiz, barchamiz ham aybdormiz («Sharq yulduzi»).

Boshqa so'z turkumlari ot vazifasida qullaganda ega bo'lib keladi. Ular quyidagilardan iborat:

Sifat: Botirlar halqning xotirasida hamisha yashaydilar (Oybek).

Sifatdosh: O'qigan o'zar (Maqol).

Son: O'lchovlari jazirama dalada yurib, cholning uchastkasini aylandilar (Oybek).

¹ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Darslik) T. 2009

Ravish: Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi (Maqol).

Harakat nomi: O'qish, o'rganish, yaratish – bizning sharaflı vazifasiz (Yashin).

Shaxsli fe'l: Keldi-ketdi kechasi alla-pallagacha davom etdi (Oybek).

Bog'lovchi bilan: Har «yomon»ning bir ammosi bo'lishi kerak; har «yaxshi»ning bir lekini (A.Qaxxor).

Taqlidiy so'z: Childirmaning birdan ko'tarilgan taka-taka, gijbong»i zalni yangratib, quloqlarni qomatga keltirdi (A.Muxtor).

Undov: «Dod-voy», «ox-uf» borgan sari kuchaydi (S.Ayniy).

Ayrim tovush bilan: Shu ulug' nomlar-la ochildi maktab. «M» -budir va bunday yoziladi «G'» (G'.G'ulom).

So'zbirikmasi bilan: Bir bosh uzum tarelkada turgan edi (X.G'ulom). Xavas bo'lsa, anqovning urug'i ham topiladi.

Bir butun xolda qullanuvchi birikmalar bilan: O'zbekiston Respublikasi – Ipak yulidagi buyuk davlatdir («Xalq so'zi»).

Eganng ma'no turlari

Eganing ma'no turlari. ega ma'noga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Shaxs bildiruvchi egalar: Odina mollarini haydab, tog' etagiga bordi (S.Ayniy). Biz maktabda keksalar, o'spirinlar bilan uchrashdik («Ma'rifat»).
- Predmet bildiruvchi egalar: Tepaliklar qorga burkangan (X.G'ulom).
- Belgi bildiruvchi egalar: Tozalik – sog'lik garovi (Maqol).
- Miqdor bildiruvchi egalar: Kechqurunlari ikkovimiz cho'lga qarab ketardik (S.Ahmad).
- Harakatqholat bildiruvchi egalar: G'o'za sug'orish – nozik ish (Oybek).
- O'rin-joy bildiruvchi egalar: Toshkent – tinchlik tayanchi («Xalq so'zi»)¹.

¹ Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили I-II қисм. Т., 2004.

Ega ikki sostavli gapning bosh bo'laklaridan biridir: u hokim sostavining grammatik markazi, shu sostavlardagi bo'laklarga, shuningdek, tobe sostavidagi bosh bo'lakka-kesimga ham hokimdir. Ega absalyut hokim holatidagi bo'lakdir. U gapdagi fikr, hukm o'ziga qaratilgan-predmetning nutq predmetning nomidir. Ega haraktni bajaruvchi yo qabul qiluvchi shaxsdir, yoki kesim ifodlangan holat yo belgi qarashli predmet. Ega baozan turni anglatadi. Umumiy qilib aytganda, gapda hukm o'ziga qaratilgan, fikr o'zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh kelishiik formasidagi hokim bo'lak-ega deyiladi. Kesim ifodalagan belgi egaga tegishli bo'ladi. Demak, ega fikr suboektni, nutq predmetini bildiradi. Egalar kim, nima, qayer so'roqlariga javob bo'ladi. Baozan ega gapda qo'llanmasligi ham mumkin. Eganing qo'llanmasligi gapning to'liqsizligi, uning biror bo'lagining tushib qolganligini, etishmasligini ko'rsatmaydi, aksincha, eganing qo'llanmasligi har-xil stilistik, poetik talablar natijasida sodir bo'ladi va gapning meoyoriy shakllanganligini ko'rsatadi.

Ega bosh kelishik formasidagi ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Baozan ega chiqish kelishigi formasini ham olishi mumkin. Masalan: Tajriba uchaskamizda turli o'simliklardan bor.

Ega ifoda materiali jihatidan quyidagi turkum so'zlar bilan ifodalanadi:

1. Bosh kelishik formasidagi turdosh yoki atoqli otlar bilan: Gulnor Yo'lchining so'zlarini diqqat bilan tingladi. O'yin kulgi yarim kechagacha davom etdi.
2. Olmosh bilan: Biz ham chiroyli, ham baquvvat bo'lishni istaymiz.
3. Otlashgan sifat bilan: YAxshi topib szo'lar, yomon qopib so'zlar.
4. Otlashgan sifatdosh bilan: Qomatiga ishongan qaddini bukib qotadi, bilimiga ishongan murodiga etadi.

5. Otlashgan son bilan: (Tun qorong'usidan tekis sug'orish qiyin)
Uchovimiz musobaqada g'olib chiqdik.
6. Harakt nomi bilan: Tun qorong'usida tekis sug'orish qiyin.
7. Ravish bilan: Sovg'aning oz ko'pi bo'lmaydi.
8. Undov va taqlid so'zlar bilan: Dod-voy, oh-voh, borgan sari kuchayardi.
9. Otlashgan shaxsli fe'l bilan: SHuning uchun xovlida kirdi chiqdi ko'payib qolgan edi.
10. Ibora bilan: xavas bo'lsa, anqoning urug'i ham topiladi.

Otlashgan so'z bilan ifodalangan ega ko'pincha son va egalik affikslarini oladi, bular uning otlashish holatini yanada mustahkamlaydi, lekin substantivasiya –otlashish uchun bu affikslarning bo'lishi shart emas. Masalan: Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

Sifatdosh, harakat nomi bilan ifodalangan egalarning o'ziga hos xususiyatlari bor. Bular aslida fe'l bo'lganligidan, o'ziga maxsus to'ldiruvchi va hol olib kengayishi mumkin. Masalan: Ishlamay egan og'rimiaiy o'lar. Bunday kengayish gap-yoyiq bo'laklarini yuzaga keltiradi.

Ellik kishi gazetaga yozildi. Hasharga to'qson kishi qatnashdi kabi gaplardagi «son+ot» tipidagi birikmalarda o'sha ot o'zidan oldingi son, miqdor bildiruvchi so'z bilan birgalikda ega sanaladi. YAna chog'ishtirish: O'nta bola suv bo'yida o'tirishibdi.

Ega vazifasidagi ot qo'llanmay, bu vazifagni uning aniqlovchisi o'z ustiga olganda, otlashgan ega tug'ilishini ko'rib o'tdik. Baozan bu holatning ayrimroq ko'rinishini ham uchratamiz: «YAshirinuvchi» eganing aniqlovchisi sintaktik konstruksiyadan iborat bo'lganda, butun bir konstruksiya ega vazifasida qo'llanadi. Masalan: Bu gaplarni har kim tushina bermaydi,

boshdan o'tgan yaxshi tushinadi. Bunda: Boshdan o'tgan-boshidan o'tgan odam.

Eganing qo'llanishiga doir baosi detallarni, hodisalarni ko'rib o'tamiz.

1. Ega to'dadan ajratilgan qismni bildirganda , to'daning – butunning nomi ko'pincha chiqish kelishigidagi so'z bo'ladi. Qismni ko'rsatuvchi so'z qo'llanmasi bu vaqtda butun nomi – chiqio'sh kelishigi formasidagi so'z go'yo ega vazifasida qo'llanganidek ko'rinadi. Masalan: Bizning zavodda hamma millatlar bor: rusdan ham bor, o'zbekdan ham bor, armanidan ham bor. Bunday qo'llash ko'proq so'zlashuv nutqda uchraydi. Bunda chiqish kelishigidagi bo'lakdan keyin bosh kelishik formasidagi so'z qo'llansa, ega odatdagi holatda ifodalangan bo'ladi. Bosh kelishikdagi so'z qo'llanmasi, bundan konstruksiyasi bir sostavli gap deb varaladi.

2. Ikki ayrim-ayrim so'z bilan ifodalangan bo'lib, uyushgan bo'laklar formasida kelgan edilar : 1) Shaxs jixatidan bir xil bo'lganda:

a) ularning har biri kesim bilan bevosta bog'lana oladi,bunday holat egalarda uchinchi shaxs mahnosi ifodalanganda sodir bo'ladi: U va Karim keldi.

b) egalar kesim bilan yakka-yakka bog'lana olmaydi, faqat birgalikdagina birikadi, har ikkisi bir butun sanaladi. Masalan: U bilan Karim borishdi. Bunday vaqtda egalarning ayrim-ayrim bog'lana olmasligining ayrim sababi kesimning jamlik, birgalik anglatishga va uning har ikki egaga ko'plik formasida bog'lanishidir.

2) Egalar shaxs jihatidan har xil bo'lganda uyushuvchi elementlar birgalikda ega sanaladi, kesim birinchi yoki ikkinchi shaxsning ko'pligini ko'rsatadi. Masalan: Men va sen keldik kabi. Bunday o'rinlarda ko'pincha umumlashtiruvchi so'z qo'llanadi: Men va u ikkovimiz keldik.

3. Ega va kesim shaxs jihatidan bir-biriga mos bo'ladi, boshqa-boshqa shaxsni ko'rsatmaydi. Kesim boshqa shaxsni, ega o'rnida qo'llangandek sezilgan bo'lak boshqa shaxsni ko'rsatsa, bunday bo'lakni izohlovchi deb qarash kerak. Bunday gaplarda ega funksiyasida qo'llaniladigan kishilik olmoshi ifodalanmay qolgan bo'ladi. Masalan: ... Ikki mashshoq bir-biringiz bilan suhbatlashdingiz. Bunda: siz – ega, ikki mashshoq – izohlovchi.

4. Juft so'z, o'z-o'zidan, bir ega sanaladi va gapning bir bo'lagi bo'lib keladi: Qo'ydi-chiqdi – eski zamondan qolgan yomon odat.

5. Maolum tur gaplarda ayrim so'z bilan ifodalangan ega qatnashmaydi: Sen bordingmi? - Bordingmi? Lekin bunday gap bilan shaxssiz gap bir-biridan farqlanmaydi, ular boshqa-boshqa turdir.

Gapda eganing qatnashuvi yoki qatnashmasligi nutqning mazmun tomonidan yo'nalishi bilan, grammatik stilistik xususiyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: Siz majlisga boring. – Majlisga boring. Bundagi xilma-xilliklarni fikrni turli darajalarini bildirishda intonasiyaning ham roli bor¹.

Eganing ayrim so'z bilan ifodalanmasligi asosan quyidagi o'rinlardan uchraydi:

1) Kesimi buyruq fe'li bilan ifodalangan gaplarda, masalan: Ayt, Tez bor. Bunday gaplarda birinchidan, ega bilan ifodalanadigan shaxs ahamiyat jihatidan asosiy o'rinda bo'lmaydi, ikkinchidan, nutq qaratilgan shaxs kesimdan, baosan undalmadan, umumiy mazmundan, grammatik holatdan bilinib turadi.

2) Kesimdagi predikativlik affikslari egani aniq ko'rsatib turganda. Masalan: Bordim, bordingiz.

¹ Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиёв Д., Расулов И., Дониёров Х. Ўзбек тили. Тошкент, 1968.

3) Suboekt mahnosida umuman odamlar o'ylaganda, kesimi ikkinschi yoki uchinchi shaxs formasidagi fe'l bilan ifodalangan gapdan anglashilgan fikr hammaga qaratilgan bo'lganda: Nima eksang, shuni o'rasan. Mehnat qilsang, rohat ko'rasan kabi misollar ham, yuqorida aytilgandek, egasiz gaplarga kiradi, holbuki ularning aniq shaxs sonini ko'rsatadi. Lekin bunday o'rinlarda shaxs-son formasi umumlashgan bo'ladi. Anglashiladiki, gapning shaxsi aniq, shaxsi nomaolum, shaxsi umumlashgan kabi tiplarini belgilashda ham eganing xarakteri, uning qo'llanish - qo'llanmasligi kabi xususiyatlar asosga olinadli.

4.) Topishmoqlarning baozi turida ham ega qo'llanmaydi: ega bilan ifodalanishi kerak bo'lgan predmetning belgilarini bildiradigan so'zlar gapni xosil qiladi, faqat eganing o'rni ochiq qoladi, tinglovchi o'shani topadi. Misollar: Kunduzi izzatda, kechasi xizmatda, (ko'rpa-yostiq). CHopsa, chopilmas – kessa, kesilmas (soya).

5) Shaxsli fe'llar gapda kirish so'z, kirish gap vazifasida qo'llanganda: Shunday qilib, desangiz, surati gazetada chiqibdi.

6) Ega bilan ifodalanishi lozim bo'lgan predmetning mahnosi kontekstual ravishda juda ham aniq o'qiladigan – seziladigan baozi gaplar borki, ular doim egasiz qo'llanadi: Uning bo'yida bo'ldi. Umumiy mazmunga qaraganda «bo'yida bo'ldi» tipidagi konstruksiyani egasi «bola»dir

Eganing tuzilish turlari

Ega tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1.Sodda ega. Bunda ega bir so'zdan iborat bo'ladi: Kulmat darvoza oldida to'xtadi (M.Ismoiliiy). U kunduzi ustaga qarashar edi (O.Yoqubov).
- 2.Sostavli ega. Bunda ega birdan ortiq so'zlardan tarkib topadi: Mustaqil Vatan gullab yashnamoqda («Xalq so'zi»).

3. Murakkab ega. Bunda ega ikki va undan ortiq bir xil ma`nodagi so'zlardan tarkib topadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – bizning yulboshchimiz («Xalq so'zi»). Ega tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi.
4. Sodda egalar sintaktik formadagi birgina so'zlardan iborat bo'ladi. Masalan fusunkor bahor, dillarga quvonch baxsh etib keldi.
5. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning tobelanish munosabatidan tuzilib, bir butun holda qo'llanadigan, bir murakkab tushuncha anglatadigan egalar murakkab hisoblanadi.

Ma'lumki ega va kesimning grammatik asosi sanaladi. Gapni-gap qilib to'ldiruvchi ana shu ikki bo'lak o'zaro shaxs-sonda moslashadi moslashuv aloqasi yordamida ikki xil sintaktik konstruksiya-so'z birikmasi va gap hosil qiladi.

Gap hosil qilishda, ya'ni ega va kesimning bir-biriga moslashuvida asosan shaxs-son qo'shimchalari va fe'lining birgalik nisbati vositasida keladi. Ega va kesim ham logik jihatdan, xam grammatik jihatdan bir-biriga moslashadi. Bunda ikki holat:

1. Ega va kesim faqat logik jihatdan moslashishi mumkin: Hamma to'plandi. Bu erda hamma so'zi ko'plik mahnosini ifoda etadi, kesim birlik mahnosida turibdi.

Demak, bu erda grammatik jihatdan moslashuv mavjud emas. Logik jihatdan esa bu erda hech qanday mantiqsizlik sezilmaydi.

2. Grammatik jihatdan moslashuv. Ega va kesimning formal jihatdan quyidagicha xususiyatlarga ega:

- a) gapning kesimi fe'l – kesim bo'lganda:

-Ega birinchi va II shaxs olmlshlari bilan ifodalanganda kesim bilan shaxs —sonda moslashadi. Men o'qidim, Siz o'qidingiz...

-Ega III shaxsni ko'rsatuvchi olmoshda ifodalanganda kesim bilan shaxs – sonda moslashadi. Lekin kesim tarkibida shaxs –son qo'shimchalari qo'llanmasligi mumkin: Sanobar o'qidi. Talabalar musobaqada g'olib chiqtilar.

b) kesim ot –kesim bo'lganda : Men talabaman – men talaba

v) uyushiq egalarning kesimi bilan moslashuvi:

Karima, Salima va Halima birga dars tayorlashdi.

Ega va kesim bir-biri bilan shaxsda hamma vaqt mos bo'ladi: Biz maktabning jamoat ishlariga faol qatnashamiz. Ular maktabning jamoat ishlariga faol qatnashadilar.

Oldingi gapda ega ham, kesim ham (Biz qatnashamiz) I shaxsda, keyingi gapda esa (ular qatnashadilar) ega va kesim III shaxsda bir-biri bilan qat'iy moslashgan.

Fe'l – kesim I va II shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos bo'ladi: Men fakulptativ mashg'ulotlarga qatnashyapman. Biz paxta yig'im-terimida dehqonlarga yordam berdik.

Fe'l – kesim III shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda moslavermaydi:

1. Kimsani bildirgan III shaxsdagi ega bilan fe'l-kesim sonda mos bo'ladi: Sidiqjon kimningdir qattiq kulgusidan uyg'onib ketdi. (A.K.) Dehqonlar bahorgi ishlarni boshlab yubordilar.

2. Ko'plikdagi ega kimsani emas, balki narsa - buyumlarni bildirsa, fe'l –kesim, odatda ega bilan sonda moslashmay, birlikda ishlatiladi: O't – o'lanlar bahor kelishi bilan ko'karadi.

3. Birgalik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesimning ega bilan sonda moslashishi o'ziga xos bo'ladi: bunday fe'llardan ko'plik mahnosini anglashilib turadi: O'qituvchilar va o'quvchilar mehnat fahriylarini kutib olishdi.

4. Ot-kesim ko'plikdagi ega bilan ko'pincha moslashmaydi, birlikda qo'llanadi: Stol atrofida Isoy bobo, Alixon aka va cho'ponlar bor edi.

5. Gapda eganing aniqlovchisi miqdor son bilan ifodalansa, ega birlik shaklida bo'ladi, kesim ham birlikda qo'llanadi: O'n besh o'spirin sayrga ketdi.

Fe'l kesimning ega bilan moslashuv yo'li bilan ro'yobga chiqadi. Bu shakliy munosabat kesimning morfologik shakli orqali amalga oshadi. Fe'l kesimning morfologik shakli orqali amalga oshadi. Fe'l kesimning morfologik shakli fe'l bo'lgani uchun u kesim shakllantirish hamda kesimning ega bilan sintagmatik munosabatini ko'rsatish vazifasini bajaradi. Masalan: SHerzod deraza pardasini surib, tashqariga qaradi. (U.Hoshimov)

I va II shaxsdagi fe'l kesimlar ega bilan ham shaxsda, ham sonda moslashadi. Masalan: Biz hamma narsaning qadrini o'zi yo'qolganidan keyin bilamiz. (U.Hoshimov)

Kesim ega bilan doimo shaxsda moslashadi. Lekin sonda doimo mos bo'lavermaydi. Quyidagi holatlarda ega bilan kesim o'rtasida qisman moslik (faqat shaxs jihatidan) mavjud bo'ladi:

a) ko'plik shakldagi ega vaziyatida shaxs bildiruvchi ot morfologik shakli bo'lganda kesim birlikda ham, ko'plikda ham kela oladi: Donishmandlar to'g'ri aytgan. (O'.Hoshimov)

b) ko'plik shakldagi ega vaziyatda jonsiz predmetlarni hayvon, parandalarni bildiruvchi ot morfologik shakli bo'lganda kesim doimo birlik shaklda qo'llanadi: Itlar hurdi.

Ot kesim vaziyatida sintaktik shaklning fe'ldan boshqa morfologik shakllari kelganligi sababli ular kesim bo'lib shakllanishi va ega bilan bog'lanishi uchun mahsus vositalarni oladi. Ana shunday vositalar bog'lama hisoblanadi.

Bog'lamalar ot kesimlarni kesim qilib shakllantirish va ega bilan sintagmatik munosabatini yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bog'lamalar ot kesimga qo'shilishiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

a) sintetik shakl (-man, -san, -dir kabi).

b) analitik shakl (bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq va boshqalar).

Sintetik shakllar to'g'ridan-to'g'ri ot kesimning o'ziga xuddi fe'l kesimlardagi shakllari kabi qo'shiladi. Masalan:

Men talabaman

Sen talabasan

U talabadir

Ko'pincha III shaxs shakli bevosita ifodalanmasligi mumkin. Masalan:
Bu er – mardlar makoni.

Ayrim vaqtlarda I va II shaxs shakllari ham shakliy ifodalanmasligi mumkin:

Men – inson farzandi (G'.G'.)

Sen talaba

Sen xalqimning yuragi (H.O.)

Bunday vaqtda ega va kesim o'rtasida mazmuniy predikativ munosabat bo'lsa ham, lekin bu munosabat moslashuv orqali ifodalanmaydi. Mazmuniy va shakliy munosabat o'rtasida nomuvofiqlik vujudga keladi.

Analitik shakli kesimlik shakllarini olgan holda kesim vaziyatidagi ot shakliga qo'shiladi va kesimni shakllantirish hamda uni ega bilan sintagmatik munosabatga kiritish vazifasini bajaradi. Masalan:

Men talaba hisoblanaman. (bo'laman)

Sen talaba hisoblanasan. (bo'lasan)

U talaba hisoblanadi. (bo'ladi)

Xulosa

Gap bo'laklari gapning uzviy qism sifatida maydonga keluvchi sintaktik kategoriyalardir. So'zlar gapda semantik grammatik jihatdan mustaqil funksiya ifodalab muayyan so'roqqa javob bo'lib, kelgandagina gap bo'lagi sanaladi.

Sintaktik birlik hisoblangan gapning shakliy tuzilishi jihatidan quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) sintaktik aloqaga kirishadigan shakllar; 2) sintaktik aloqaga kirishmaydigan shakllar.

Ega gapda kesim orqali ifodalanayotgan belgi predmetini anglatuvchi bo'lakdir. Demak, ega fikr sub'ektini, nutq predmetini bildiradi. Bunda predmet keng ma'noda (narsa, shaxs, voqea-hodisa, belgi, xususiyat, harakat, holat va boshqalar) tushuniladi.

Eganing ma'no turlari. ega ma'noga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Shaxs bildiruvchi egalar: Odina mollarini haydab, tog' etagiga bordi (S.Ayniy). Biz maktabda keksalar, o'spirinlar bilan uchrashdik («Ma'rifat»).

Predmet bildiruvchi egalar: Tepaliklar qorga burkangan (X.G'ulom).

Belgi bildiruvchi egalar: Tozalik – sog'lik garovi (Maqol).

Miqdor bildiruvchi egalar: Kechqurunlari ikkovimiz cho'lga qarab ketardik (S.Ahmad).

Harakatqholat bildiruvchi egalar: G'o'za sug'orish – nozik ish (Oybek).

O'rin-joy bildiruvchi egalar: Toshkent – tinchlik tayanchi («Xalq so'zi»).

Ega tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

sodda ega. Bunda ega bir so'zdan iborat bo'ladi: Kulmat darvoza oldida to'xtadi (M.Ismoiliy). U kunduzi ustaga qarashar edi (O.Yoqubov).

Sostavli ega. Bunda ega birdan ortiq so'zlardan tarkib topadi: Mustaqil Vatan gullab yashnamoqda («Xalq so'zi»).

Murakkab ega. Bunda ega ikki va undan ortiq bir xil ma`nodagi so'zlardan tarkib topadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – bizning yulboshchimiz («Xalq so'zi»). Ega tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi.

А д а б и ё т л а р

1. Абдурахмонов Ғ. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, 1979 .
2. Ғуломов А., Асқарова М., Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т, 1987.
3. Ҳожиев А., Махмудов Н. Семантика ва синтаксис позиция. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн, 1983 . 2-сон.
4. Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқида гап бўлаклари тартиби. «Ўзбек тили ва адабиёти» журн. 1976 йил 6-сон.
5. Ўзбек тили грамматикаси. II том Т., 1976.
6. Шоазизов Ш. Эга ҳақида баъзи мулоҳазалар. Т., ДПИ илмий асарлари 87 том. 1972
7. Абдурахмонов Ғ. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Т., 1979.
8. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 2004.
9. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Darslik) Т. 2009
10. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Darslik) Т. 2010
11. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили I-II қисм. Т., 2004.
12. Шамсиева М. Ўзбек тилида субъектив баҳо билдирувчи отлар. Тошкент, 1974.
13. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев Д., Расулов И., Дониёров Х. Ўзбек тили. Тошкент, 1968.